

JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT.

Xatamova Anora Abduvaxob qizi
Feruzbekusomonov01@gmail.com

Andijon qishloq xojaligi va
agrotexnologiyalar insituti xuzuridagi
Marhamat agrotexnologiyalar texnikumi
Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola ko'p yillardan beri o'z dolzarbligini yoqotmagan jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurshish to'g'risidadir. Yoshlarimizni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalash, ularning qalbida ezgulik urug'larini qadash, ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ajdodlarga, milliy an'ana va urf-odatlariga hurmat ruhida voyaga yetkazishning g'oyat ahamiyatliligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Annotation

This article is about raising awareness against ignorance that has been of concern for several years. It is important to educate our youth with knowledge and enlightenment and the following article illustrates instill them the good seeds, to build a sense of love for the Motherland, to bring up young generations in the spirit of respect for national traditions and customs.

Аннотация

Эта статья посвящена повышению осведомленности о невежестве, которое вызывает беспокойство в течение нескольких лет. Важно просвещать нашу молодежь знаниями и просвещением, статья иллюстрирует, как построить чувство любви к Родине.

Azal-azaldan insoniyat jaholatga, bid'atga va hurofotga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelmoqda. Agarda, unga qarshi kuch ishlatilsa, zo'ravonlik asosida kurash olib borilsa, jaholat avvalgidan battaroq kuchayib ketishi mumkin. Hozirgi davrda ko'z o'ngimizda dunyoning turli yerlarida ro'y berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy, axborot kommunikatsiya manzarasidagi chuqur o'zgarishlar, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir davrda, hammamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ham ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Barchamizga ma'lumki, har qanday kasallikni davolagandan ko'ra uning oldini olish avfzalroqdir. Kasallikni oldini olish uchun esa birinchi navbatda inson organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. Shunday ekan, avvalambor jaholatga qarshi kurashishdan oldin yoshlarda ona-Vatanga muhabbat,

qadimiy boy tariximizga, ajdodlarimizga hamda o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada rivojlantirish, kelajak avlodga yetkazib, zarur bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy va ma'naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'rin tutadi. Toki yoshlar nafaqat milliy o'zligini balki dunyoni chuqurroq anglaydigan, zamon bilan tengma teng qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shundagina har qanday buzgunchi va vayronkor g'oyalar ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Biz fidoyi vatanparvarlarni tarbiyalashimiz, elim deb yurtim deb yashovchi, shu yo'lda hatto jonini ham ayamaydigan, o'zidan so'ng ozod va obod Vatan qoldiradigan farzandlarni tarbiyalashimiz zamon va mustaqillik talabi" [2]. Shunday ekan mamlakatimiz taraqqiyoti, yurt farovonligi, biz yoshlarga berilayotgan ishonchni oqlay olishimiz darkor. Har bir yosh qalbida ilm uruguni sochib, turli g'arazli niyatli kishilar yoshlar ongini zaharlashidan asrashimiz, bizni o'zimizdan, urf –odatlarimizdan ayirmoqchi bo'lgan, yurtimiz tinchligini ko'ra olmaydigan g'arazgo'ylarga biz o'z bilimimiz, taffakkurimiz bilan javob bera olishimiz zarurdir.

O'tgan asrimizning ma'rifatparvar yozuvchi va shoiri Abdulhamid Cho'lpon o'zining "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyasida Hoji Muhammad vafot etayotgan chog'ida o'g'liga shunday vasiyat qiladi – "O'glim! Meros... senga.. o'lturgan.... Joy... vasiyatim.. o'quv.. o'quv...o'quv.., men rozamen-deb jon taslim qiladi. Muhammadiyor o'quvchilarining bir ikkisini tanub, har nima qilib bo'lsa ham o'ch olmoqni qasd qilib ko'rди, lekin otasini o'lturuvchilar bular bo'lmay, balki jaholat ekanliginni o'ylab tinchgina otasini ko'mdi. Va o'zi jaholat ila olishmoqlikning quroli, asbobini esa otasi aytub ketgan edi. Ya'ni Jaholatga qarshi to'p, miltiq, to'pponcha, xanjar, o'q doru yolg'iz-o'quv, o'quv, o'quv edi." deb yozadi. Bundan biz bilishimiz mumkinki, jaholatga nisbatan yagona qurolimiz bu ma'rifatdir. Unga nisbatan kuch ishlatsak, biz ham ularga o'xshagan jaholatga botgan kimsalarga aylanamiz. Qalbimizda ilm nuri nur sochar ekan biz har qanday jaholatga o'z bilmimiz bilan javob qaytara olamiz .

Umuman olganda jaholat nima, uning negizida nima yotibdi?. Ma'lumki, arab tilidagi bu so'zning o'zagi-birlikdagi shakli "jahl" bo'lib bu so'z o'z navbatida, islom dinining ilohiy nurini ko'ra-bila turib unga tish tirnog'i bilan qarshi turgan ashaddiy budparastlardan biri Abu Jahlning ismi bo'lgan. Shunga asoslangan holda islom dinida va tasavvuf falsafasida "Qur'on" nozil bo'lgunga qadar o'tgan davrlarni "johiliyat zamonlari", bu ilohiy kitob tafakkurimizni yorishtirgan davr, "asri saodat" deya ta'riflash keng tarqalgan.

Ma'rifat esa, arabcha "arafa" - bilmoq so'zidan yasalgan. Uning lug'aviy ma'nosi esa bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya

jarayonidir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi.

Jaholatga qarshi kurashishning asosiy quroli ilm hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. Shunday ekan, biz yoshlar ongida ham ona Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz, qadimiy boy tariximizga, ota-bobolarimiz kabi o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada shakllantirishimiz, kelajak avlodlarga yetkazib, kerak bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma'naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'rin tutadi.

“Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo'lishini aytib beraman”, – degan edi ingliz siyosiy arbobi Edmund Berk.

Jaholat to'grisida Martin Luter King shunday deydi: “Dunyoda jaholatdan ko'ra xavfliroq narsa yo'qdir [3]. Darhaqiqat jaholat juda ko'p narsalarga qodir. Uning natijasida dunyoda qanchadan qancha yoshlar o'z yo'lini, maqsadini yo'qotgan. Bunga misol qilib Afg'oniston va Suriyada qatnashayotgan yuzlab, minglab yoshlarni olsak bo'ladi. Ular jaholatning qurbonlaridir. O'z fikri, dunyo qarashiga, biror bir kasb-hunarga ega bo'lmaganligi, aniqrog'i mafkuraviy immuniteti sust yoshlar bunday yo'llarga kirib qolishmoqda. Buning oldini olish uchun biz nima qilish? Buning uchun birinchi navbatda bilimli, zukko, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan yoshlarni yetishtirish, har qanday mafkuralarga qayta javob bera oladigan immunitetni shakllantirish kerak.

Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar inson etib tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi” [4].

Haqiqatdan ham yurtimizda yoshlarga e'tibor kuchli. Buni turli shahar va qishloqlarda barpo etilib, ilm nuri sohib turgan akademik litsey, kollej, maktab binolari, shu bilan birga yoshlarda ona-Vatanga muhabbat, o'z xalqiga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, his tuyg'ularini tarbiyalash hamda estetik tarbiya berish, go'zallikni his qilishni o'rgatish maqsadida chekka-chekka qishloqlarda chiroyli, zamon talablariga javob beradigan musiqa maktablari va sport majmualarini misol qilib olsak bo'ladi. Shunday ekan yoshlar zamon talablariga labbay deya javob bera oladigan, mustaqiligimizni abadiylashtirishga, ozod va obod vatan, farovon hayot qurishga, mamlakatni jahondagi nufuzini yuksaltirishga va munosib o'rnimizni yanada yuqoriga ko'tarishga erishishi lozim.

Yoshlarning ongini ijobiy fazilatlar bilan boyitish uchun ularni kitob bilan mashg'ul qilish, ularga kitob o'qishning afzalliklari haqida tushuncha berish zarur hisoblanadi. Kitob mutolaa qilish orqali ko'plab yutuqlarga erishish mumkin.

Haqiqatan ham, kitobxonlik insonni barkamollikka yo'llasa, uni o'qimaslik johillikka, ma'rifatsizlikka olib kelib, natijada ma'naviy qashshoqlik yuzaga keladi. Biz esa aksincha kitob o'qisak, dunyoqarashimiz kengayadi, ongimizda tasavvur va tushunchalar paydo bo'ladi, ma'naviy-estetik ehtiyojimiz qondiriladi, ilmiy salohiyatimiz yuksaladi, og'zaki nutqimiz rivojlanadi, jamiyat hayoti haqida qayg'urish hissi kuchayadi. Kitob insonni har qanday qabih ishdan, qabih niyatdan asrashi mumkin. Shuning uchun kitob insonga eng yaxshi do'st hisoblanadi. Bunday foydani boshqa hech kimdan, hech nimadan topib bo'lmaydi. Kitob o'tmishni bugun va kelajakka bog'laydigan ko'prik hisoblanadi. Hozirda texnika kundan-kunga rivojlanib zamonamiz ilgarilab boryapti. Deyarli, har besh xonadonning ikkitasida shaxsiy kompyuterlar bor. Kompyuterdagi o'ziga xos qulayliklar, internet orqali kerakli ma'lumotlarni bir zumda topish imkoniyati bugunning yoshlari orasida kitoblardan foydalanishga bo'lgan ehtiyojni cheklab qo'ygandek tuyuldi. Texnikaning rivojlanishini biz to'g'ri baholay olib, undan foydali maqsadda foydalanishimiz kerak. Hozirgi globallashuv zamonda internetdan istalgan ko'rinishdagi ma'lumotlarni topish mumkin. Shu sababli ham, kitob bilan insonlar o'rtasida ma'lum ma'noda bo'shliq yuzaga kelgan. Globallashuv haqida gapiradigan bo'lsak, - bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Afsuski, bugun global olamning rivojlanishi orqali qo'shtirnoq ichidagi ba'zi bir g'arazli niyatdagilar o'zlarining maqsadlariga osonlikcha erishyaptilar. Tabiiyki, inson tabiati axborot olishga moyil. O'z vaqtida to'g'ri axborot yetkazib berilmasa, jamiyatda g'oyaviy bo'shliq paydo bo'ladi. Bunday ehtiyoj ma'rifat, to'g'ri yo'lga boshlovchi g'oya bilan qondirilmasa, chetdagi yovuz kuchlar shu zahoti ishga tushadi. Yoshlarni ongini zaharlashga kirishadi. Hozirda global muammoga aylanib borayotgan "Ommaviy madaniyat" yoshlar ongiga chuqur kirib bormasligi, ularning dunyoqarashlarini o'zgartirib yubormasliklari uchun Birinchi Prezidentimiz yoshlarga yaratib bergan zamin, hamda hozirgi kunda ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirayotgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ham yoshlarga bo'lgan e'tiborlari, g'amho'rliklari, say-harakatlarini isboti sifatida har bir qishloq va shahar ko'chalarida, mahallalarda qurilayotgan sport majmualarida, turli xil hunarmandchilik va bilim dargohlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bularning zamirida esa biz yoshlarni ma'naviy boshlig'imizni to'ldirish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash, Mustaqil hur O'zbekistonimizni yanada ko'klarga ko'tarish, o'z milliyligimizni zamon bilan hamnafas holda uyg'unlashtirib borish, bir so'z bilan aytganda vatanparvarlik hissi bilan to'ldirishdir. Ana o'shandagina biz jaholatga qarshi bilim, yuksak aql-idrok va ma'rifat bilan javob bera olamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, inson o'zligini anglash dahldorligini bilish, atrof muhitdagi voqealardan befarq bo'lmasdan, dunyoviy va diniy bilimlarni

chuqurroq o'rganish va bilish doimo izlanishda bo'lsa albatta "Jaholatga qarshi ma'rifat" bilan kurasha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. Toshkent 2008.
3. [http: www.goodreads.com](http://www.goodreads.com)
4. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, 2017.